

## O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILYATI VA O'QUVCHILAR BILAN MULOQAT JARAYONINI OLIB BORISH TIZIMI

*Baxtiyorova Munira Mansur qizi*  
*Nukus Davlat Pedagogika instituti*  
*Pedagogika fakulteti 3 – kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kommunikativ qobilyat uning o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishi, o'quvchilar bilan muloqat jarayonini to'g'ri tashkil qilish va muloqat haqida umumiy tushunchalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ muloqat, mimika, pantomimika, Informatsion-kommunikativ funksiya, regulatsion-kommunikativ funksiya, Affektiv-kommunikativ funksiya.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari va qator asarlarida ta'lim va tarbiya O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqivoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinib, uning maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'qituvchining muhim kommunikativ qobilivatlardan biri bo'lib, avvalo o'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosid o'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonid namoyon bo'ladi. Bugungi kunda mustaqil respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab-yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir. Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan, o'ziga, boshqa insonga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z to'g'ri munosabatini bildiradi oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor, tashabbuskor va tadbirkor bo'lmog'i lozim. O'quvchida ana shu xususiyatlarning rivojlanishi so'zsiz o'qituvchiga, uning o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri boshqara olishiga va o'quvchilar bilan o'rnata oladigan muomala va munosabatlariga bog'liq. Buning uchun esa pedagoglardan kommunikativ qobilyat talab qilinadi.

**Kommunikativ qobilyat:** Bu bolalar bilan muloqatda bo'lishga, o'quvchilarga bo'lgan munosabatda to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai – nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashda pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobilyatdir. Shuning uchun o'qituvchida notiqlik san'ati kuchli rivojlangan bo'lishi kerak. So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: “So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz". Bunda o'qituvchining shirinsuxanligi mujassamlashgan notiqlik, san'ati hamda aktyorlik qobiliyatini namoyon qila olishini alohida e'tirof etish kerak. O'qituvchi aktyordek tayyor tekstni yod olmaydi, biroq u

har gal takrorlanmas vaziyatda ijod qiladi. So‘z bilan og‘zaki ta‘sir o‘tkazishi, o‘qituvchidan pedagogik qobiliyat texnikasini, ijodkorlikni talab qiladi. O‘qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so‘z bilan og‘zaki ta‘sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralalar nutq ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi, so‘zlar, notqlik san‘ati asosida ta‘sir etish, vazifasini ijro etishga undovchi buyruqlar, ta‘qiqqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikri, anglatish, o‘quvchining erkin mulohazalarini ma‘qullash yoki nojo‘yi harakatlari uchun ayblash so‘zning og‘zaki ta‘sir etuvchi komponentlaridir. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki muloqat jarayoniga yanada ta‘sirli qiluvchi vositalar mimika va pantomimikadir.

Mimika - bu o‘z fikrlarini, kayfiyatini, holatini hissiyotini qosh ko‘z va chehra muskillarining harakati bilan bayon qilish san‘atidir. Ba‘zan o‘qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o‘quvchilarga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Pantomimika – bu o‘qituvchining gavdasi, qo‘l, oyoq, harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O‘qituvchilarning ta‘lim – tarbiyaviy faolyatida o‘quvchilar bilan muloqati muhim ahamyat kasb etishi barchaga ma‘lum. Biroq o‘quvchilar bilan muloqatda o‘qituvchining pantomimikasi, ya‘ni gavda, qo‘l, oyoq harakati to‘g‘ri ifodalanmasa, ta‘lim tarbiyaga asoslangan muloqat natija bermsligi mumkin. Muloqot funksiyalari xilma-xil bo‘lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko‘ra ular quyidagilardan iborat: (B.F. Lomov taklif etgan tasnif):

Informatsion-kommunikativ funksiya — axborot almashinuvini ta‘minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar, tizimlar orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal (unda belgilar tizimi sifatida nutq ishlatiladi) va noverbal (unda nolisoniy belgilar tizimi ishlatiladi) kommunikatsiya farqlanadi. Noverbal kommunikatsiya bir necha shakldan iborat: — kinetika (imo-ishora, mimika, pantomimika); — paralingvistika (ovoz lokalizatsiyalari, pauzalar); — proksemika (masofa va vaqt me‘yorlari); — vizual aloqa (ko‘zlar orqali aloqa); — takesika (jismoniy aloqa).

2. Regulatsion-kommunikativ funksiya — suhbatdoshlar xulq- atvorining regulatsiya qilinishi (boshqarilishi)ni ta‘minlash vazifasi. Kishilar muloqot jarayonida verbal, jismoniy, noverbal yo‘llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta‘sir o‘tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullashtiruvchi va korreksiyalovchi tarzda ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

3. Affektiv-kommunikativ funksiya – inson emotsional sohasining regulatsiya (boshqarish) qilinishini ta‘minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional holatlarining eng muhim determinantasidir. Chunki turli- tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo‘ladi va o‘zgaradi. Kasbiy pedagogik kommunikativ muloqotning muhim komponenti o‘qituvchining o‘z fikr va mulohazalarini, emotsional his-tuyg‘ularin aniq ifoda eta olish mahoratidir. Turli tasodifiy pedagogik vaziyatlardi

o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganida, tushkun bi ahvolga tushganida ichki his-tuyg'ularini bir holatdan boshqa holatga, bi shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan rol o'ynab vazi yatdan chiqishni ham bilishi lozim. Shu ma'noda taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlaridi o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida fikrlarini quyidagicha bayoi qiladi: "Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamaslig mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. O'quvchiga ba'zan muloqotda ko'ngil azobin namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadag aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak. Biroq shunchaki tashqi, sahnaviy rol o'ynash yaramaydi. Bu pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan bog'laydigan qandaydir, kamar bor, bu sizning go'zal xulqingizni namoyish etib beruvchi rolingiz bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdag yashirin his-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir". Demak, muloqot murakkab polifunksional ya'ni ko'p vazifali hodisadir. Biz bo'lajak mutaxassislarda quyidagi muomala xususiyatlarini shakllantirishimiz zarur:

- muomala madaniyatining nazariy asoslari;
- shaxslararo munosabatlar qonuniyatlari;
- pedagogik muloqotning qonuniyatlari;
- oilada, guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo'lish;
- shaxsda muloqot shakllanishini o'rganish;
- muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish.
- shaxslararo munosabatlarda muloqotning ahamiyatini kuzatish;
- muloqot xossalarini bilish va qo'llay olish;
- guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish.
- oilada muloqot madaniyati, muloqot xossalaridan boxabar bo'lish;
- muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil etish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e'tibor berilmoqda. komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shaklanmagan muloqot madaniyatisiz sog'lom ijtimoiy munosabatlami o'rnatish mushkul. Shunday ekan muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi. Yaxshi tashkil qilingan muloqot ta'lim

jarayonining sifatini yanada oshiradi va o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonch kabi xususiyatlarni shakillantiradi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova, N.G'.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “ Rivojlanish psixologiyasi Pedagogik psixologiya “ Toshkent – 2019.
2. B.X.Xodjayev “ Umumiy pedagogika “ Toshkent – 2017.
3. A.Xoliqov “ Pedagogik mahurat “ Toshkent “ Iqtisod – moliya “ 2011.
4. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova “ Umumiy psixologiya “ Toshkent – 2010.
5. M.Maxsudova “ Muloqat psixologiyasi “ Toshkent “ Turon – iqbol 2006.